



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TURKIY MIFOLOGIYADA DARAXT KULTI: KOSMOLOGIK RAMZ VA DINIY TASAVVUR SIFATIDA

Xomitallyev Begzod

Fargʻona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy mifologiyada daraxt kulti mavzusi kosmologik, diniy va ijtimoiy jihatdan kompleks tahlil qilinadi. Maqolada daraxt kultining uch qavatli olam modeli bilan bogʻliqligi, uning totemizm va shamanizmdagi oʻrni hamda islomlashuvdan keying transformatsiya jarayonlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, daraxt ramzining semantik qatlamlari va turkiy madaniy tafakkuridagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari daraxt kultining turkiy mifologik tafakkurda markaziy ramziy model sifatida shakllanganini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: turkiy mifologiya, daraxt kulti, olam daraxti, kosmologik model, shamanizm, totemizm, muqaddas daraxt, mifologik ramz, Oʻrta Osiyo anʼanalari.

КУЛЬТ ДЕРЕВА В ТЮРКСКОЙ МИФОЛОГИИ: КАК КОСМОЛОГИЧЕСКИЙ СИМВОЛ И РЕЛИГИОЗНОЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ

Хомиталиев Бегзод

Ферганский государственный университет, магистрант

Аннотация

В данной статье культ дерева в тюркской мифологии рассматривается в комплексном космологическом, религиозном и социальном аспектах. Анализируется связь культа дерева с трехчастной моделью мира, его место в тотемизме и шаманизме, а также процессы трансформации в постисламский период на основе научных источников. Кроме того, исследуются семантические уровни символа дерева и его роль в тюркском культурном мышлении. Результаты исследования показывают, что культ дерева сформировался как центральная символическая модель в тюркском мифологическом мировоззрении.

Ключевые слова: тюркская мифология, культ дерева, мировое дерево, космологическая модель, шаманизм, тотемизм, священное дерево, мифологический символ, традиции Центральной Азии.

THE TREE CULT IN TURKIC MYTHOLOGY: AS A COSMOLOGICAL SYMBOL AND RELIGIOUS CONCEPT

Xomitallyev Begzod

Fergana State University, Master's Student

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the tree cult in Turkic mythology from cosmological, religious, and social perspectives. The study examines the relationship between the tree cult and the tripartite model of the universe, its role in totemism and shamanism, and the processes of transformation in the post-Islamic period based on scholarly sources. It also explores the semantic layers of the tree symbol and its place in Turkic cultural

thought. The results of the study demonstrate that the tree cult emerged as a central symbolic model in the Turkic mythological worldview.

Keywords: Turkic mythology, tree cult, world tree, cosmological model, shamanism, totemism, sacred tree, mythological symbol, Central Asian traditions.

Yer yuzida insoniyat paydo bolib, uning olam haqidagi tushunchalari kengayib, diniy tasavvurlari shakllanib borar ekan, u o'ziga tushunarsiz bo'lgan narsalarga diniy tus bera boshladi. Ibtidoiy odamlar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtira boshladilar. Bu jarayonda ular o'zlariga mavhum bo'lib tuyilgan bazi tabiat hodisalaridan qo'rqa boshladilar va natijada ularga sig'inib, qurbonliklar keltirish boshlandi. Shunday qilib inson momoqaldiraq, shamol, quyosh, yulduzlar, daraxt, tog' va boshqa narsalarni ilohiy deb hisoblay boshladi. Natijada insoniyat tarixidagi ilk diniy tasavvurlar animizm, totemizm va fetishizm shakllandi. Inson ongi rivojlanib borgan sari uning dunyo haqidagi bilimlari kengaydi va tabiiyki, diniy tasavvurlari ham o'zgarib, rivojlanib bordi. Vaqtlar o'tib totemizm, animizm va fetishizm kabi ibtidoiy dinlar o'rnini poloteistik dinlar egallagan bo'lsa, keyinchalik ular o'rnini monoteistik dinlar egallay boshladi. Ammo insoniyatning ilk etiqodi hisoblanmish ibtidoiy dinlar odamlar ijtimoiy hayotiga shu darajada singib ketgan ediki, ular yangi dinlarga moslashib yashashda davom etaverdilar. Shunday ibtidoiy inonchlardan biri bu daraxt sig'inish etiqodi edi. Turkiy xalqlar ibtidoiy dinlarni unutib tangrichilik diniga etiqod qila boshlagan bo'lsalarda, ammo daraxt totemi xalqning yodidan o'chib ketmadi va aksincha tangrichilik dinida ham markaziy o'rinlardan birini egalladi.

Turkiy xalqlar diniy qarashlari va mifologiyasida tabiat unsurlari muqaddaslashtirilgan bo'lib, ular orasida daraxtga bo'lgan inonch alohida o'rinni egallaydi. Daraxt kulti shuning uchun ham turkiy xalqlar mifologiyasida keng tarqalganki, u xalq orasida "hayot daraxti" nomi bilan atalib, bundan tashqari u olamlarni o'zaro bog'lovchi kosmik vosita ham hisoblangan. Ko'plab afsona va rivoyatlarda daraxt orqali inson samo bilan aloqaga kirishishi, ilohiy qudratga yaqinlashishi mumkinligi tasvirlanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi turkiy mifologiya doirasida daraxt kultining kosmologik, diniy va marosimiy funksiyalarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdir. Daraxt kulti haqida O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, moniylik adabiyoti manbalari, o'zbek xalq doston va folklarida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Qolaversa o'rta asrlar muarrixlari bo'lmish Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston" asarlarida, Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida va boshqa tarixiy asarlarda ham malumotlar uchraydi. Shuningdek turkiy xalqlar etnografiyasi va madaniyati bilan shug'ullangan nemis, rus, fransuz va turk olimlarining ilmiy ishlarida ham qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Ushbu maqolada yuqoridagi asarlardan foydalangan holda daraxt kultining turkiy xalqlar hayotida tutgan o'rni va ahamiyati yoritildi.

Daraxt kultining universalligi uni boshqa madaniyatlar bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Qiyosiy mifologiya shuni ko'rsatadiki, ko'plab xalqlarda "olam daraxti" yoki "hayot daraxti" konsepsiyasi mavjud bo'lib, u kosmosning markaziy o'qi sifatida talqin qilinadi.

Daraxt va o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan totemistik qarashlarni ilk bor nemis mifologi Vilgelm Mangard o'rgangan bo'lib, u bu mavzuga aloqador bir qancha kitoblarning muallifidir. Jumladan uning qalamiga mansub bo'lgan "German miflari", "Germanlarda daraxt kulti", "Nemis va Skandinaviyaliklarda tangrilar olami", "Dala va o'rmon kultlari" kabi asarlarida va ayniqsa, 1884-yilda nashr etilgan "Mifologik tadqiqotlar" nomli kitobida daraxt kulti va uning nemis va skandinav xalqlarining mifologik qarashlarida tutgan o'rni to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Nemis va boshqa xalqlar mifologiyasidan chuqur bilimga ega bo'lgan Vilgelm Mangard o'zining "Qadimgi germanlarda daraxt kulti" asarida Shimoliy Yevropa xalqlarining agrar kultlari va marosim folklori materiallarini o'rganish asosida "har yili o'simliklar "o'ladi" va bahorda hayotning yangilanishi, serhosillikning qayta tiklanishi jarayoni ro'y beradi. O'simliklarning muttassil ravishda "o'lishi" va yana qaytadan o'sib chiqishi qadimgi dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq etiqodiy qarashlar tizimida hosildorlik mabudlarining o'lib qayta tirilishini anglatar edi" degan juda muhim ilmiy xulosaga keladi. Keyinchalik bu xulosa butun jahon xalqlari mifologiyasida "o'lib qayta tiriluvchi xudolar" genezisini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Dastlab daraxt kulti haqida gap borar ekan shuni qayd etish kerakki, turkiy mifologiyaga ko'ra daraxt – "axis mundi" yani "olam o'qi" deb nomlanib, u olamning markazi sifatida tasavvur qilingan. Shuningdek daraxt uch olamni – osmon, yer va yer osti dunyosini bog'lab turuvchi kosmik ustun vazifasini ham bajargan. Unga ko'ra daraxtning shohlari osmonga, uning tomirlari yer osti dunyosiga, tanasi esa yur usti olamiga tegishli hisoblangan. Uning tomirlari va shohlari orqali ruhlar harakat qilgan va shu orqali daraxt uch olamni o'zaro bog'lab turgan.

Qadimgi turklar mifologiyasida daraxt kultining bunday keng tarqalganligiga sabablardan biri shundaki, qadimgi turklar daraxt tanasida hali dunyoga kelmagan, ya'ni tug'ilmagan go'dak bolalarning joni – "xut" saqlanadi deb o'ylashgan. Bunday qarash faqat turkiy xalqlar orasidagina tarqalmay balki, boshqa xalqlar mifologiyasida ham ko'zga tashlanadi. Tungus-manjur mifologiyasiga ko'ra "hayot daraxti"ning guli va mevasida hali dunyoga kelmagan bolalarning joni saqlanadi degan qarashlar mavjud. Bugungi kunda ham shunga o'xshash ma'lumotlar mavjud bo'lib, etnograf E.M.Pesherevaning ta'kidlashicha, farg'onalik tojiklar tut daraxtida Sulaymon payg'ambar yashiringan deb hisoblab, uni kesmaganlar.

Daraxt kulti shu darajada keng tarqalganki, u turli shakllarda turlicha manolarni ham o'zida mujassam etadi. Jumladan agar daraxt yolg'iz o'sgan bo'lsa uni yolg'iz daraxt, qurigan bo'lsa, qurigan daraxt yoki uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lsa, qari daraxt deya atashgan. Ularning har biri o'ziga yarasha ramzlarni ifodalagan. Misol uchun qurigan daraxt falokat keltirishiga ishonilgan va u kesib tashlangan. Shunga o'xshash odatlar hatto bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Xususan, bugungi kunda nikoh to'yi marosimlarida yuz ochdi marosimida kelinning yuzidagi yopqichni voyaga yetmagan yosh bola mevali daraxtning novdasi bilan ilib olib ochadi. Bu odatdan albatta kelinning serfarzand bo'lishiga yaxshi niyat qilinayotganini bilsa bo'ladi.

Ammo bazi hududlarda bir odat borki, unda daraxtning boshqa funksiyasi ochiladi. Mevali daraxt novdasi to'y marosimida qo'llangan bo'lsa, qurigan daraxt shohi motam marosimlarida qatnashadi. Agar marhum uylanmagan yoki turmushga chiqmagan bo'lsa, u yotgan uyga chimildiq teskari tarzda tutilib, xotinlar tasirli tarzda hasratli motam "yor-yor" larini aytadilar. Etiborli jihati shundaki, vodiydagi o'zbeklar motamda nikoh to'yi marosimlaridan farqli ravishda marhumning yuziga tutilgan matoni yosh chaqaloq tomonidan mevali daraxt novdasi bilan ochganiday emas, balki keksa ayol qurigan daraxt novdasi bilan ochadilar. Bu yerda endi qurigan daraxt o'lim ramzi sifatida tushunilishi mumkin, bundan tashqari marhum yuzidagi matoni keksa ayol tomonidan olinishi ham, bu o'limning haq ekanligiga bo'lgan inonch bilan bog'liq.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, daraxt kulti xalq ijtimoiy hayotiga chuqur singib ketgan bo'lib, uni har bir marosimda uchratish mumkin. Bir so'z bilan aytganda u tug'ilishdan to o'limga qadar bo'lgan har bir marosim va urf-odatlarda ko'rinish beradi. Qadimda daraxt kulti xatto qirollar tanlanishida ham muhim ro'l o'ynagan. Buni fransuz tarixchisi Jean-Paul

Rouxning “Qadimgi turk mifologiyasi” nomli kitobida xitoy manbalariga tayanib bergan quyidagi ma’lumoti orqali ham bilsa bo’ladi: “Xitoy manbasiga ko’ra daraxt samoviy o’q bo’lishi mumkin: “O’n xotindan juda ko’p o’g’li bo’lgan birinchi qirolning o’limidan so’ng, o’g’illar ulkan bir daraxtning atrofida to’planib, daraxtning yonida qilingan sakrash musobaqasida eng balandga sakragan qirol bo’ladi degan qarorga kelishadi.” Ushbu ma’lumotdan ko’rinib turibdiki, vafot etgan qirolning vorislari keying qirol kim bo’lishini aniqlash uchun daraxt oldida musobaqa o’tkazishadi. Bu musobaqaning aynan bir belgilangan daraxt atrofida o’tkazilishi esa, uning musobaqa halol o’tkani va qirol ilohiy kuch yordami va guvohligida taxtga o’tirganini anglatgan bo’lishi mumkin. Bundan tashqari tarixda jinoyatchini jazolash yoki kimgadir mukofot berilishi kerak bo’lsa, bu ishlar ham daraxt ostida amalga oshirilgani haqida ma’lumotlar bor.

Daraxt kulti totemistik jihatdan ham juda keng yoyilgan bo’lib, unga ko’ra juda ko’plab turkiy qabila va urug’lar o’zlarining kelib chiqishlarini daraxt kulti bilan bog’lashadi. Bu qabilalar daraxtni nafaqat o’zlarining totemistik ajdodi sifatida, balki urug’ni himoya qiluvchi magik vosita sifatida ham e’zozlashgan. Ayrim turkiy xalq rivoyatlarida insonlarning daraxtdan tug’ilishi yoki muqaddas daraxt tomonidan himoyalaniishi haqidagi motivlar uchraydi.

O’g’uz xoqon dostonida hayot daraxti mavzusi, samoviy daraxt mavzusi bilan birlashadi: “O’g’uz ov paytida bir ko’lning o’rtasida bir daraxt va bu tarafning kovagida ilohiy bir qizni ko’radi. O’g’uz unga uylanadi va qiz unga uch o’g’il tug’ib beradi.” Dostondagi ushbu voqea uyg’ur afsonasidagi quyidagi voqea bilan o’xshashlikka ega: “Bir daraxt ustida paydo bo’lgan shox to’qqiz oy-u to’qqiz kundan so’ng yoriladi va besh bola dunyoga keladi bularning eng kichigining ismi Bukudir.”

Daraxtning yana bir boshqa talqinini Rashiddin al-Fadlallah va Abulg’oziy Bahodirxonning qipchoqlarning kelib chiqishi haqida yozgan ma’lumotlarida ko’ramiz: “Bir homilador ayol tug’ish uchun bir daraxtning kovagiga boradi. Xotinning dunyoga keltirgan chaqalog’i daraxtning bir farzandidir.” Yuqoridagi ikki afsonadan ham ko’rinib turibdiki, turkiy qabilalar o’zlarining kelib chiqishlarini daraxt inonchi bilan bog’lashga harakat qilganlar.

Daraxtdan farzand ko’rish motivi turkiy xalqlar folkloriga ham ko’chgan hisoblanib, u biroz transformatsiyaga uchragan. Xalq dostonlari yoki ertaklaridagi qahramonlarning biror meva yoki o’simlikni yegach, xomilador bo’lgan onadan mo’jizaviy tarzda dunyoga kelishi, aynan yuqoridagi qarashlarning, o’zgargan ko’rinishidir. Bunga misol tariqasida, “Tohir va Zuhra” ertagida oq soqolli chol qo’ynidan ikkita qizil olmani chiqarib, birini podshohga, birini vazirga uzatib: “Men olmani sizlarga shu shart bilan beramanki, qaysi biringizning xotiningiz o’g’il tug’sa, otini Tohir qo’ying, kim qiz tug’sa, otini Zuhra qo’ysin”, – deydi.

Yana bir narsani alohida ta’kidlab o’tish kerakki, daraxt kulti faqatgina turklar diniy va mifologik tuzilmasida muhim o’rin tutmay, aksincha butun dunyo xalqlari diniy va mifologik qarashlarida muhim o’rin tutgan. Jumladan, qadimdan dunyo xalqlarida “odamlar ruhi daraxtlarda yashaydi, agar marhumga bag’ishlab daraxt ekilmasa, uning ruhi azobda qoladi” degan tushuncha mavjud edi. Bugungi kunda deyarli yo’qolib ketgan, qabristonlarda qabr boshiga daraxt ekish odati ham shu qadimgi inonchning bugungi kunga transformatsiya bo’lgan ko’rinishidir.

Yuqoridagi sabablar bois ham insonlar daraxtlarni bekordan bekorga kesishga qo’rqanlar. Eng qizig’i bu odat bugungi kunda ham bazi bir turkiy xalqlarda saqlanib qolganligini ko’ramiz. Jumladan hozirgi kunda Janubiy Sibir hududlarida yashaydigan qabilalar daraxtni urug’ni yovuz kuchlardan himoya qiluvchi ilohiy kuch sifatida bilishadi va ular o’zlari ezozlaydigan daraxtni kesishdan qo’rqadilar, agar biror zaruriyat bilan ushbu

daraxtni kesish kerak bo'lib qolsa, ular bu ishni qo'shni qabilalardan iltimos qiladilar. O'rta Osiyoning ayrim hududlarida ham shunga o'xshash qarashlar mavjud.

Umuman olganda daraxt kulti turkiy xalqlar mifologiyasida juda ham keng tarqalib, o'zida bir qancha ramzlarni birlashtirgan. Bundan tashqari u maishiy hayotning ham barcha jabhalariga kirib borib, tug'ilishdan to o'lim marosimlarigacha bo'lgan barcha marosimlarda u yoki bu ko'rinishda uchraydi. U bazi o'rinlarda yovuz ruhlardan himoyalash vazifasini bajarsa, yana bazi o'rinlarda u hayot va yangilanish, nasl davomiyligini anglatgan. Buni yuqorida "Yuz ochdi" marosimlarida kelin yuzidagi ro'molning mevaki daraxtning shohi bilan yosh bola ilib ochishida ko'rib o'tdik.

Daraxtning yovuz ins-jinslardan himoyalashiga bo'lgan ishonch bugungi kunda ham saqlanib qolgan. Samarqandda chillali xonadonni yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida bola yotgan uyga mevali daraxt shohidan osib qo'yilgan. Chaqaloqni ko'rgani kirgan har bir kishi ushbu shoxni qoli bilan ushlagandan keyingina ichkariga kirgan. Etnograf Adham Ashirov Qo'qon shahri o'zbeklari orasida mavjud bo'lgan quyidagi qiziqarli ma'lumotni taqdim etadi: "Uy egalaridan kimdir biror-bir uzrli sabab bilan qorong'i tushgandan keyin uyga kech qaytsa, maxsus udumni amalga oshirgan. U uyga kirishidan avval hovlidagi mevali daraxtni quchoqlab, o'zi bilan birga ergashib kelgan turli-tuman ins-jinslarni daraxtga o'tkazgandan keyingina uyga kirar ekan." Yuqoridagi ikki ma'lumotdan ham ko'rinib turibdiki, daraxtga bo'lgan e'tiqod oradan ming yillar o'tishiga qaramasdan xalqning xotirasidan o'chmay, o'z ko'rinishini turli shaklda o'zgartirib xalq bilan birga yashab kelmoqda.

Motam marosimlarida marhum yaqinlarining hassa tayanib yig'lashlari ham daraxtga bo'lgan inonchning arxaik qoldiqlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, erkak kishi vafot etganda hassaga tayanib yig'lashda hassa nafaqat suyanchiq vazifasini, balki ushbu xonadonning ustunidan ayrilganliklarining ramziy belgisini ham ifodalagan. Qolaversa, xalqda qancha ko'p hassa suyanib yig'lansa, marhumga shuncha yengil bo'ladi, degan tushuncha bo'lgan. Vodiya oldinlari "hassa" lar qabrga qo'shib ko'milgan.

Daraxtga inonch mavzusi shu bilan cheklanib qolmagan va bugungi kunda ham u turkiy xalqlar inonch tizimida alohida o'rinlardan birini egallaydi. O'lkamizga islom dini kirib kelib, mahalliy aholi islom dinini qabul qilgandan keyin, xalqning qadimgi urf-odatlar va diniy qarashlari asta-sekin unutila boshlandi, ammo shunga qaramasdan ular butunlay xalq xotirasidan o'chib ketmadi. Ular o'z shakllarini o'zgartirib, islom dini ahkomlariga moslashib transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirdilar. Daraxt kulti ham shunday yo'lni bosib o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda turkiy xalqlar orasida daraxtga bo'lgan ishonchning saqlanib qolganligini ko'rsatib beruvchi odatlardan biri bu daraxtlarga "yalov bog'lash"dir. Bunda aholi muqaddas qadamjolar yonida o'sgan va xalq tomonidan muqaddas deb hisoblangan daraxtlarning shohlariga kiyim parchalarini bog'lashadi. Bundan maqsad esa turli-tuman bo'lishi mumkin, kimdir uzoq muddat farzand ko'rmagan bo'lsa, ushbu daraxtga kiyim parchasini bog'lash orqali o'ziga yaratgandan farzand so'raydi. Yana kimdir mol-mulk yoki oila farovonligini so'rasa, yana biri tuzalmas darddan forig' bo'lishni tilashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 100 b.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 111 b
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 80 b
4. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. 173 b

5. Jo'rayev M. O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020. 101 b.
6. Karomatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2008. 221 b.
7. Manhardt W. Wald und Feldkulte. – Berlin: Gebrüder Borntraegar, 1875-1877.
8. Roux J.P. Eski türk mitolojisi. – Ankara: BilgeSu, 2011. 25 b
9. Roux J.P. Eski türk mitolojisi. – Ankara: BilgeSu, 2011. 25 b.
10. Roux J.P. Eski türk mitolojisi. – Ankara: BilgeSu, 2011. 26 b
11. Tokarev S.A. Ранние формы религии. Москва: Наука, 1964.